



SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI





SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARILISHI

*(2023-yilning yanvar-aprel
oylari uchun dastlabki
ma'lumot)*



Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 9 331,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 105,4 % ni tashkil etdi.

yanvar-aprel
mlrd. so'm



yanvar-aprel
FHI, %






■ mlrd. so'm FHI, %

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (7 427,0 ming so'm) hamda Jomboy tumanida (5 122,0 ming so'm) nisbatan yuqoriligini ko'rsatmoqda.





Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari (2023-yil yanvar-aprel oylarida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 9 331,1 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 105,4 % ni, tashkil etdi.



2023-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (45,7 %), Jomboy tumani (10,2 %), Urgut (6,9 %), hamda Samarqand tumani (6,8 %), tumanlari hissasiga tog'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Bulung'ur tumanida (115,6 %), Oqdaryo tumanida (114,6 %) hamda Qushrabot tumanida (110,2 %) kuzatildi.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 2023-yil yanvar-aprel oylari

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, Ishlab chiqarish 7,3 % ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 50,3 % ga, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 10,7 % ga hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 3,0 % ga pasayish kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2023-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 85,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o'zgarish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2023- yilning yanvar-aprel oylarida 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali 16,5 % (13,0 %), o'rta-quyi texnologiyali 16,9 % (17,6 %) va quyi texnologiyalisi 62,5 % (66,2 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,5 % (2022-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi 10,4 % (2022-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 137,0 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 24,4 % (2022-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 39,8 % (2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,5 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-aprel	2023-yil yanvar-aprel	Farqi, +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	56,5	25,4	- 31,1
Paxta tolasi, ming t.	18,7	26,1	7,4
Tozalangan paxta yog'i tonna.	3 668,0	5 110,0	1 442,0
Konyak spirti – ming litr 100 % spirt	115,0	134,3	- 19,3
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna	246,3	278,3	32,0
Uzum vinosi - ming litr	6,9	5,2	-1,7
Aroq – ming litr 100 % spirt	36,1	12,6	- 23,5

2023-yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), 278,3 tonna (2022-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 13,0 % ga ko'paygan), 25,4 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (55,0 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

(2023-yil yanvar-aprel oylarida)

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar-aprel oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 717 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 45,8 % ga kamaygan.



2023-yil

717 dona

2023-yil

54,2 %

2022-yil

1 188 dona

2022-yil

93,7 %

2021-yil

1268 dona

2021-yil

102,5 %

Avtobuslar ishlab chiqarish

(2023-yil yanvar-aprel oylarida)

Samarqand viloyatida 2023-yil yanvar-aprel oylarida 257 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatgich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,0 % ga ko'paygan.



2023-yil

257 dona

2023-yil

104,0 %

2022-yil

247 dona

2022-yil

93,2 %

2021-yil


265 dona

2021-yil

62,5 %




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-aprel oylarida metallurgiya sanoati ulushi 9,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 154,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 10,4 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa 137,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 966,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-aprel oylarida Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 3,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 84,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 3,5 % gacha ko'tarilgan, fizik hajm indeksi esa, 97,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 329,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-aprel oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 26,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 107,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 30,5 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 103,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2 842,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 104,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,9 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 90,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 83,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 19,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 100,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,6 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 107,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 917,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kiyim ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-aprel oylarida Kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 115,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, Kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,9 %, fizik hajm indeksi 93,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 273,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.





Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 50,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi 89,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 72,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish



2022-yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 137,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 %, fizik hajm indeksi 81,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 67,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 109,3 % .

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi 118,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 118,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 82,5 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi 123,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 237,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 214,4 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni, fizik hajm indeksi 85,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 211,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 13,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 117,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 9,6 %, fizik hajm indeksi 78,5 % ga hamda ishlab chiqarish hajmi 893,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 108,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,2 % ini) tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 49,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-aprel	2023-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	93 594,4	27 554,4	- 66 040,0
Issiqlik energiyasi, ming, gkal	3 839 812,0	2 884 997,4	- 954 814,6


(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda*)



Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 57,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar-aprel	2023-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	11 924,8	14 573,0	2 648,2
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	31,8	32,4	0,6
Plastmassa chiqindilari, tonna	133,0	913,0	780,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda*



Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar


Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm






* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib 32,0 % shuningdek, Urgut 10,9 %, Samarqand 10,6 % ni hamda Tayloq tumanlarida 10,2 % ni tashkil etdi




■ mlrd. so'm o'sish sur'ati, %





Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1 056,2 ming so'm bo'lgan holda, Samarqand shahrida 2 426,9 ming so'mni, Jomboy tumanida 2 240,3 ming so'mni, Tayloq tumanida 2 065,2 ming so'mni va Samarqand tumanida 1 733,0 ming so'mni tashkil etdi.

yanvar-aprel
ming so'm




yanvar-aprel
o'sish sur'ati



■ ming so'm o'sish sur'ati, %

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 361,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning mos davriga nisbatan 118,2 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 46,7 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari




2023-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 2 085,8 milliard so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 16,6 % ga oshdi.

2022-yilning shu davriga nisbatan viloyat buyicha o'tacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Bulung'ur tumani (180,2 %), Paxtachi tumani (165,1 %), Jomboy tumani (143,8 %) hamda Oqdaryo tuman (126,7 %) korxonlari tomonidan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 47,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 52,2 % ni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmda oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 32,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 67,5 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2022-yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 116,6 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 119,8 % ni tashkil etdi.





Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 38,2 % ni, shuningdek, tumanlardan Urgut 10,4 %, Samarqand 10,4 %, hamda Kattaqo'rg'on tumani 6,5 % ni tashkil etdi.



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi





■ mlrd. so'm o'sish sur'ati, %

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati



Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Samarqand shahriga to'g'ri kelib, 25,1 % ni, shuningdek, Jomboy tumani 15,1 % ni, Toyloq tumani esa 13,5 % ni tashkil etdi.

yanvar-aprel
mlrd. so'm



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

yanvar-aprel
o'sish sur'ati



■ mlrd. so'm o'sish sur'ati, %

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2023-yil 1-may holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 6 766 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 319 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 19,5 %) Samarqand shahriga, 901 tasi (13,3 %) Urgut tumaniga, 686 tasi (10,1 %) Samarqand tumaniga, 584 tasi (8,6 %) Pastdarg'om tumaniga va 383 tasi (5,7 %) Kattaqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan

489 ta

2023-yil yanvar-aprel

698 ta

2022-yil yanvar-aprel

718 ta

2021-yil yanvar-aprel



Jami faoliyat yuritayotgan

6 766 ta


2023-yil 1-may holatiga

8 274 ta

2022-yil 1-may holatiga

7 390 ta


2021-yil 1-may holatiga





Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 135,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 44,3 % ni tashkil etdi.

yanvar-aprel
mlrd. soʻm



yanvar-aprel
Ulushi, %



■ mlrd. soʻm oʻsish surʻati, %